

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XORIJIY TILNI O'RGANISH VA
O'RGATISH ME'YORLARI.**

Normamatov Ramazon Shavkat o'g'li

Samarqand Davlat Chet tillari instituti Ingliz II fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-kurs 2230-guruh talabasi

e-mail: rnormamatov5@gmail.com

Annotatsiya: *Dolzarb muammolardan biri bo'lgan ta'limning sifatini kuchaytirish uchun muhim bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish bu har bir pedagogning asosiy vazifalaridandir. Shu boisdan ham ta'limning eng kichik bosqichlaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'lim va unda Xorijiy tilni o'qitish metodlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Xorijiy tilni o'rganish va o'rgatishning qay darajada muhim ekanligi, bolalarning o'zlashtirish holatlari qay darajada bo'lishi va o'qituvchi bolaga qanday yondashishi kerakligi haqida bilib olish mumkin. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh – avlodning bilim olish salohiyati, psixologiyasidagi o'zgarishlarning jadalligi Xorijiy tilni o'rganishida qanday ta'sir o'tkazishi va shu kabi muhim ma'lumotlar jamlangandir.*

Kalit so'zlar: *muammo, bolalar, o'quvchi, salohiyat, ta'lim, o'qituvchi, me'yor, o'rganish, Xorijiy til, talablar.*

Abstract: *It is one of the main tasks of every pedagogue to take important measures to improve the quality of education, which is one of the major problems. Therefore, primary education, which is one of the smallest stages of education, and the methods of teaching a foreign language play an important role in it. In this article, learning and teaching a foreign language in primary education is discussed. it is possible to learn about how important it is, at what level the children's mastery is, and how the teacher should approach the child. In particular, the potential of the growing age-generation, the speed of changes in psychology, how it affects the learning of a foreign language, and similar*

important information have been collected.

Key words: *problem, children, student, potential, education, teacher, standard, learning, foreign language, requirements.*

Sifatli ta'lim berish va sifatli ta'lim olish bu butun bir millatning kelajagi qanday bo'lishini belgilab beradi. Buning negizi shundan iboratki, agar o'sib kelayotgan yosh-avlodga yaxshi ta'lim berib borilsa, ular yaxshi bilimga ega bo'lishadi va kun kelib o'z yurtlarining o'sib-gullashiga hissa qo'shishadi. Xalqimiz orasida “ ish quroling soz bo'lsa, rangi ro'ying oz bo'lur” degan maqol bor. Buning ta'rifiga mutanosib ravishda respublikamizda ham muhim chora-tadbirlar ko'rilyapti. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017 yildagi PQ-2909-sonli Qaroriga muvofiq “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturi doirasida olib kiriladigan zamonaviy o'quv-laboratoriya, ilmiy-laboratoriya va kompyuter uskunalari, sarflanadigan laboratoriya materiallari (butlovchi materiallar, reaktivlar, kimyoviy idish, biologik materiallar va obyektlar), dasturiy mahsulotlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha xorijiy o'quv va ilmiy-metodik adabiyotlar bo'xona to'lovlaridan ozod qilinsin. Bu harakatlarning barchasi ta'lim tizimini yanada yaxshilash va pedagogik salohiyatni oshirishga qaratilgandir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchining maktabdagi ilk 4 yilligi bo'lib, bu davr uni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini yo oshiradi yoki so'ndirishi mumkin. Aynan bu davr o'quvchining bilim olishning boshlanish qadamlaridir va bu muhimdir.

Aynan o'qituvchilar boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga qanday ta'lim berishi borasida ko'plab izlanish olib borishi zarur. Hozirgi zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va buning natijasida bolalarning ongli salohiyati tez rivojlanib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu o'qituvchiga ohirgi 20 yil ichidagi o'quvchilarga also solishtirib bo'lmasligini uqtiradi. Ulardan mobil qurilmani qanday yoqish, o'chirish, internetga kirish va shu kabi funksiyalar

haqida so'rasangiz to'xtovsiz gapirib berishi yoki uni qanday ishlata olishini ko'rsatib berishi mumkin. Ammo xorijiy bo'lgan biror so'zni qanday talaffuz qilinishini so'rasangiz also aytib bera olmaydiganlari ham bor. Bunga sabab o'qituvchi uning bilim olishiga bo'lgan imkoniyatini munosib baholay olmagan va uni darsga jalb qila olmagan deb hisoblasa bo'ladi. Bir narsani ta'kidlash joizki, pedagog nafaqat bilimli balki, psixologik jihatdan ham bilimga ega bo'lishi zarur. Har bir yoshda bola yoshiga munosib fikrlashi yoki tengdoshlaridan ortda qolishi ham mumkin. Har bir bolaning harakteri qanday, aslida bilim olishga qanday yondashadi – aynan mana shularga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Xorijiy tilni o'rgatayotgan har bir o'qituvchi ularga ta'limiy o'yinlardan foydalangan holda dars o'tishi mumkin. Har qanday ta'limiy o'yinlar esa bolalarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Dars davomida bilim olish darajasi turlicha bo'lgan bolalar ham bunday dars jarayonida faol qatnashishga harakat qiladi. Eng asosiysi bolalar o'rtasida mutanosiblikni ushlab turish, ya'ni a'lochi yoki past bahoga o'qiydigan bola tafovutini yaratib qo'ymasligi zarur. Psixologik jihatdan katta o'zgarishlar bo'layotganini bilgan pedagog, boshlang'ich ta'limdagi bolaning bilim poydevorini mustahkam qo'yishi kerak. Deylik avvalgi o'smirlik davri 16-17 yoshga to'g'ri kelganini va hozir esa bu ko'rsatkich 11-12 yoshga to'g'ri kelishini hisobga oladigan bo'lsak 3-4 sinf o'quvchilari jizzakiroq va ko'p dars qilish yoqmaydigan yoshga yetgan bo'ladi. Ularga Xorijiy tilni o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalardan keraklicha foydalanish zarur. Ayrim mobil ilovalar ham hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rgatishda ancha qo'l kelmoqda. Ayniqsa, "Scratch" dasturi aynan kichik yoshdagi bolalarga so'z yodlash, xorijiy tildagi multfilmlarni tayyorlash va tomosha qilish, qo'shiq yaratib, birgalikda kuylash kabi imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa bolalarni begona bo'lgan so'zlarni yodlashga va o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Avvalo har bir kichik yoshdagi bolalarga ta'lim beradigan pedagog bolalar uchun maxsus dars metodlarini yaratishi va o'ziga bo'lgan ma'suliyatini oshirishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatimiz bir necha me'yor va talablarni

o'qituvchi – pedagoglarimizga yuklagan, ammo hamma ham o'z ustida ishlashni va ilmiy salohiyatini oshirishni istamaydi. Ya'ni ular faqat davlat qo'ygan normalar bilangina chegaralanishadi. Xorijiy tilni kichik yoshdagi bolalar qay darajada yaxshi bilishi esa ularning kelajagiga albatta ta'sir qilmasdan qo'ymaydi. Agar hozir biror boladan “qaysi o'qituvching yaxshi?” – deb so'ralsa u bemalol aytib bera oladi. Chunki undagi fikrlash qobiliyati allaqachon rivojlanib bo'lgan va bu qobiliyat boshlang'ich sinflarda ta'lim oladigan yoshdagi bolalarda ham rivojlanib ulgurgan. Bolalarning xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyoji juda ham kuchli va ular qachonki, xorijiy tillarni o'rgansa, xorij mamlakatlarda tahsil olsa, yashasa, malaka oshirsa va o'z mamlakatiga yangi yondashuvlar bilan yangilikni tadbqiq etsa , u yuksak marralarga yetishi va kelajakda o'z mamlakatidagi muhim insonlardan biriga ham aylanishi mumkin. Bola xorijiy tilni qay darada o'rganishi uning faqatgina bilim olish qobiliyatiga ega emasligi esa har doim unitmasligimiz va o'qituvchi o'quvchining hayotida muhim ro'l o'ynashini unutmasligimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shabanov. D Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2009
2. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son) Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr
3. Nishanova Z, Alimova G. Bolalar Psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi- .:T “Toshkent”, 2006./72-73 betlar

ELEKTRON MANBAALAR

4. <https://lex.uz/>
5. <http://www.e-library.tsuos.uz/>
6. <http://www.fledu.uz/>